



## TIBBIYOT BRIGADASI HAMSHIRALARINING KASBIY FAOLIYATI

---

*Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabi  
Magistr talabasi  
Fayzullayeva Saidaxon*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Prezidentimizning 2020-yil 12-noyabrdagi 6110-sonli “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga binoan tashkil etilgan tibbiyot brigadalari hamshiralarining jamiyatimizdagi o'rni, ularning ish faoliyati va vazifalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** tibbiyot brigadasi, aholining tibbiy xaritasi, tibbiy brigada pediatriya hamshirasi, tibbiy brigada terapevt hamshirasi, tibbiy brigada doyasi, tibbiy brigada amaliyot hamshirasi.

Hamshiralar dunyodagi tibbiyot xodimlarining katta qismini tashkil qiladi. Ular nafaqat ularning ko'pligi, balki ko'rsatadigan tibbiy xizmatlarning keng doirasi tufayli ham muhim bo'g'indir, chunki ular bemorlarga xavfsiz, samarali va sifatli hamshiralik yordamini ko'rsatadilar [6,7].

Shifokor o'z amaliy faoliyatida, davolash ishi, barcha bilim va harakatlarini ma'lum bir bemorning aniq bir kasalligini davolashga qaratsa, hamshiralarning e'tiborlari kasallikdan ko'ra ko'proq bemorga yoki odamlar guruhiga, jamoaga, oilaga qaratilgan bo'lib, aholi sog'lig'i bilan bog'liq bo'lgan muammo va ehtiyojlarni hal qilishga yo'naltirilgan bo'ladi va shu bilan ularning faoliyati shifokorlar faoliyatidan ajralib turadi [2].

Hamshiraning oiladagi ijtimoiy sharoitlarni yetarli darajada baholay olishi va ota-onalarning bolalarga nisbatan zo'ravonligining oldini olishini hisobga olgan holda patronaj xizmatini to'g'ri tashkil etish poliklinika hududida chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish imkonini beradi [8].

JSST ekspert qo'mitasining hisobotida (1991) ta'kidlanganidek, tibbiyot xodimlaridan samarasiz foydalanish noto'g'ri rejalashtirish bilan bog'liq bo'lib, bu ularga yordamchi xodimlar sifatida munosabatda bo'lishga olib keladi [3,5].

Shu jihatlarni hisobga olgan holda mamlakatimizda birlamchi tibbiy sanitariya yordam muassasalari faoliyati tubdan isloh qilindi hamda aholi salomatligini



yaxshilash maqsadida aholini tibbiy-ijtimoiy patronaj bilan qamrab olishning yangi zamonaviy mexanizmi yaratildi.

Xususan, hukumat tomonidan aholining barcha qatlamlari uchun tibbiy-ijtimoiy patronajni samarali tashkil etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

Prezidentimizning 2020-yil 12-noyabrdagi 6110-sonli "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan 5 nafar tibbiyot xodimlaridan iborat "Tibbiyot brigadalari" tuzildi[4].

Tibbiyot brigadasi- aholiga birlamchi tibbiy sanitariya yordamini ko'rsatuvchi birlamchi tibbiyot mutaxassislari guruhi bo'lib, 2000 aholiga 1ta brigada hisobidan tashkil etiladi.

Ushbu brigada oilaviy shifokor va ularga ko'mak beruvchi 4 turdagi hamshiralar, jumladan terapiya hamshirasi, pediatriya hamshirasi, doya va patronaj hamshiralardan iborat jamoa hisoblanadi.

Ular birgalikda o'zlariga biritirilgan hududlarda oilalar va fuqarolar kesimida "tibbiy xarita"ni shakllantiradilar, aholini salomatlik va fiziologik holatidan kelib chiqqan holda yuqori, o'rta va quyi xavf guruhlariga bo'ladilar.

Profilaktik ko'riklar o'rniga aholining xavf guruhi hamda o'ziga birlashtirilgan hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir kasalliklar bo'yicha muntazam, maqsadli tibbiy skrining tekshiruvlari yangilangan maqsadli patronaj tizimini joriy qilinishini ta'minlaydi. Yuqori xavf guruhidagi va mustaqil ravishda tibbiy muassasaga murojaat qila olmaydigan bemorlarni muntazam kuzatuvga olib, ularga individual patronaj amaliyotini olib boradilar.

Tibbiy brigada pediatriya hamshirasi 0 – 18 yoshgacha bo'lgan aholi kontingentiga uy sharoitida tibbiy xizmat ko'rsatadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar hamda 0-5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida xonadonda reja asosida universal patronaj o'tkazadi, xavfli omil aniqlanganda zudlik bilan shifokor va amaliyot hamshiraga xabar berib progressiv patronajni amalga oshiradi. Xonadonlarda yosh onalarga bola parvarishi, bolani 6 oylikkacha ko'krak suti bilan boqish afzalliklari, 6 oylikdan so'ng bola ratsioniga qo'shimcha ovqatlarni kiritish, bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib boradi. Bola uchun xavfsiz muhitni yaratish, jarohatlar va baxtsiz hodisalarni oldini olish bo'yicha onalarga tavsiyalar beradi, xonadonlarga patronaj tashrifi davomida bolalarda antropometrik o'lchovlar o'tkazgan holda BVI aniqlab egri chiziqlar jadvaliga belgilab boradi. Shuningdek, tibbiy brigada pediatriya hamshirasi har oyda chaqaloqlarni o'z vaqtida



профилактик emlash kalendari bo'yicha emlashini ta'minlash maqsadida ularni hisobini olib boradi va emlash rejasiga muvofiq bolalarni ota-onalari bilan emlashga chaqiradi. Emlashdan so'ng reaksiyalar va asoratlarni aniqlash maqsadida uch kun davomida uyiga borib xabar oladi. Dispanser hisobida turadigan va tibbiy cheklovi bo'lgan bolalarni shifokor ko'rigiga chaqiradi va o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tkazadi.

Tibbiy brigada terapevt hamshirasi 18 yoshdan katta bo'lgan aholi kontingentiga uy sharoitida patronaj o'tkazadi va tibbiy xizmat ko'rsatadi. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Yiliga 2 marotaba aholi xatlovini o'tkazadi va oila shifokori, amaliyot hamshirasi bilan birgalikda unga biriktirilgan hududni shakllantirishga yordam beradi.
2. Aholida o'tkazilgan xatlovdan so'ng, ularning salomatlik va fiziologik holatidan kelib chiqib, shifokor bilan birgalikda tegishli guruhlariga (tayanch, past xavf guruhi, o'rta xavf guruhi, yuqori xavf guruhi va boshqalar) bo'ladi.
3. Hamshira aholi guruh mansubligiga ko'ra belgilangan muddatlarda tibbiy ko'riklardan o'tkazadi va ularning salomatligini davriy kuzatuvga oladi;
4. Mustaqil ravishda tibbiyot muassasasiga kela olmaydigan bemorlarni doimiy kuzatuvga oladi, xonadonga borgan holda ularga tibbiy xizmat ko'rsatadi va individual patronajni amalga oshiradi;
5. Dispanser nazoratida turgan bemorlarga patronaj ishlarini amalga oshiradi va ularni reja asosida shifokor ko'rigiga taklif etadi.
6. 40 yoshdan oshgan bemorlarda yuqumsiz kasalliklarni erta aniqlash maqsadida skrining tekshiruvlarini o'tkazadi.
7. Poliklinika va mahallalarda aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazish maqsadida tashkil etilgan tadbirlarda faol ishtirok etib, aholini ishtirokini ta'minlab beradi.
8. Hududdagi yosh oilalarga reja asosida patronaj o'tkazgan holda ular bilan reproduktiv salomatlik va bexatar onalik bo'yicha tushuntirish ishlari olib boradi.
9. Tug'ish yoshidagi ayollar orasidagi homiladorlikka nisbiy va mutloq moneligi bor ayollarni istalmagan homiladorlikni oldini olish maqsadida kontratseptiv vositalar bilan qamrab olish ishlarini hudud doya bilan hamkorlikda amalga oshiradi.
10. Hududdagi homiladorlarni erta aniqlab, doyaga xabar beradi.
11. Qamoq jazosini o'tab chiqqanlar, uzoq muddat xorijda bo'lib qaytganlar, odam savdosidan jabrlanganlarni o'z vaqtida tibbiy ko'rikka chaqirish va ularga patronaj ishini tashkil etishni amalga oshiradi.



12. Yuqumli kasalliklarni oldini olish maqsadida amalga oshirilayotgan emlash ishlarida faol ishtirok etib, aholini tashrifini ta'minlaydi.

13. Patronaj davomida aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yuqumli kasalliklarni oldini olish bo'yicha suhbatlar olib boradi.

Tibbiy brigada doyasi tibbiy brigadada shifokor va amaliyot hamshirasi nazorati ostida patronaj hamshiralari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Barcha tug'ish yoshdagi ayollarni o'z nazoratiga oladi, ularni ro'yxatlarini shakllantirib, elektron baza yaratadi.

2. Tug'ish yoshidagi ayollar orasidagi homiladorlikka nisbiy va mutloq moneligi bor ayollarni istalmagan homiladorlikni oldini olish maqsadida kontratseptiv vositalar bilan qamrab olish ishlarini patronaj hamshira bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

3. Patronaj hamshira tomonidan aniqlangan homiladorlarni ro'yxatga olib, ularni har oy shifokor qabuliga kelishini ta'minlab, reja asosida patronaj xonadoniga patronaj o'tkazadi.

4. Homiladorni tug'ruqqa tayyorlash. Xavf omillari to'g'risida ma'lumot berish. (bular: homiladorlikni xavf belgilari monitoringini o'tkazish, ikkala qo'lda A/B ni o'lchash, tanada shishlar borligini aniqlash, puls, nafas sonini, tana haroratini o'lchash, bachadon tubi balandligini va homila yurak urishini, siydikda oqsil borligini aniqlash) kabi vazifalarni bajaradi.

5. To'g'ri ovqatlanish, homiladorlar gigiyenasi, zararli odatlarni oldini olish, homiladorlikda jismoniy faollik bo'yicha tavsiyalar beradi.

6. "Prenatal skrining" xonasiga belgilangan muddatlarda tashrifini ta'minlaydi.

7. Ayollarga tug'ruqdan keyingi patronaj o'tkazadi. Tuqqan ayollarni tug'ruqdan keyingi (40 kundan so'ng) kontratsepsiya qamrovini tashkillashtiradi.

Tibbiy brigada amaliyot hamshirasi esa quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Shifokorgacha bo'lgan ko'rikni o'tkazadi.

2. Bemorlarni saralaydi (shoshilinch yordam, rejali qabul, shifokor ko'rigi lozim bo'lmagan aholi)

3. Tibbiy brigada patronaj hamshiralari 1 haftalik ish rejasini ishlab chiqish va va shifokorga tasdiqlatadi.

4. Tibbiy brigada patronaj hamshiralari faoliyatini nazorat qiladi.

5. Doya, tor mutaxassis va patronaj hamshiralari orasidagi uzviylikni ta'minlaydi.

**Xulosa:** Har bir hamshira o'z kasbiy vazifa va majburiyatlaridan kelib chiqqan holatda aholi salomatligini muhofazalashda, aholi o'rtasida turli yuqumli va yuqumli



bo'lmagan kasalliklarni oldini olish, kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va davolashga munosib hissalarini qo'shishadi. Ular qaysidir ma'noda oilaviy shikoforlarning yordamchilari sanaladi. Sababi, bir vaqtning o'zida barcha aholi qatlamiga bir vaqtning o'zida tibbiy xizmatni ko'rsatish qanchalik qiyin bo'lsada, har bir turdagi hamshiralalar o'ziga tegishli aholi qatlami bilan ishlashi tibbiy xizmatning sifatini yanada oshiradi.

Bu kabi hamshiralalar birlamchi tibbiy yordamni birlashtiradi, jamoalarni muvofiqlashtiradi va jamiyat bilan eng yaqin aloqada bo'lgan mutaxassislar sifatida ishlaydi [1].

Zero, hamshiralik parvarishi sog'liqni saqlash tizimining asosidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Botha E, Gwin T, Purpora C. The effectiveness of mindfulness based programs in reducing stress experienced by nurses in adult hospital settings: a systematic review of quantitative evidence protocol. // JBI Database System Rev Implement Rep. 2015 Oct; 13(10):21-9.
2. Mamatkulov B.M. Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish. //darslik, Toshkent, 2013. 9-21b
3. Olapipo A. R., Amodu M. O. Primary health care services in Nigeria: Critical issues and strategies for enhancing the use by the rural communities.//Journal of Public Health and Epidemiology Vol. 4(1), pp. 5-13, January 2012; 2141-2316.
4. PF-6110-son 12.11.2020. <https://lex.uz>
5. Двойников С.И. В сестринском деле грядут существенные изменения// Главная медицинская сестра: журнал для руководителя среднего медперсонала. - 2015. - № 3. - С. 13-21.
6. Калашникова Н. А., Викторова В. И., Аверин А.В. "Медицинские сестры — движущая сила перемен" // Сестринское дело. - 2015. - № 5. - С. 3840.
7. Калининская А.А, Дзугаев А.К, Чижикова Т.В. Кадровая политика в здравоохранении Российской Федерации // Здравоохранение Российской Федерации. 2009. - №5. - с. 11-14.
8. Мусина Г.А. Развитие патронажной службы на уровне первичного звена, Казахстан